

ALISHER NAVOIYNING “XAZOIN UL MAONIY” ASARI VA UNDAGI FALSAFIY QARASHLARI HAQIDA.

Bobonazarov Usmonali Mustafoyevich

Alfraganus unversiteti

1- Kurs magistranti.

Annotatsiya. Biz ushbu maqolada Alisher Navoiyning Xazoyin ul-maoniy asarni tahli qildik. Hamda bu asarni tarkiblarini o'rgandik.

Kalit so'zlar: Xazoyin ul-maoniy, “Navodir ush-shabob”, “Badoye' ul-vasat”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Munshaot”, “Muhokamat ul-lug'atayn”.

“Xazoyin ul-maoniy” (Ma'nolar xazinasasi) — 1491—96 yillarda tartib berilgan Alisher Navoiyning asari. “Xazoyin ul-maoniy” asari “G'aroyib us-sig'ar” (Yoshlik g'aroyibotlari), “Navodir ush-shabob” (Yigitlik nodirlik (she'rlari), “Badoye' ul-vasat” (O'rta yosh badialari) va “Favoyid ul-kibar” (Keksalik foydalari) nomli devonlardan tarkib topgan mukammal yig'ma devondir. Xalq orasida “Chor devon” deb ham yuritiladi. “Xazoyin ul-maoniy”ning tuzilish tarixini Alisher Navoiyning o'zi “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Munshaot”, “Muhokamat ul-lug'atayn”, ayniqsa, “Xazoyin ul-maoniy”ga maxsus yozgan “Debocha”sida bayon etgan. Ushbu asarlarda yozilishicha, Abdurahmon Jomiy o'z she'rlarini to'plab (1491 — 92), 3 devon tuzgan va Navoiyga taqdim etgan. Navoiy bu devonlarning aralashib ketmasligi uchun ularga maxsus nomlar qo'yishini maslahat bergan. Navoiy maslahati Jomiyga ma'qul tushgan va u devonlarini “Fotihat ush-shabob” (Yoshlikning boshlanishi), “Vositat uliqd” (Bog'lanish vositalari), “Xotimat ul-hayot” (Hayot xotimasi) kabi nomlar bilan atab, umumiy “Debocha” yozgan hamda bu fikrning Navoiydan chiqqanligini alohida ta'kidlagan edi. Shundan so'ng, Navoiy ham ustozni taklifi bilan barcha lirik she'rlarini jamlab Xazoyin ul-maoniy asarini tuzgan.

“Xazoyin ul-maoniy” 45 ming misraga yaqin, 3130 dan ortiq lirik she'rlardan tuzilgan. Unga shoirning 7—8 yoshidan boshlab umrining oxiriga qadar yozgan o'zbekcha she'rlari kiritilgan. “Xazoyin ul-maoniy” tarkibida qariyb 2600 g'azal, 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 10 muxammas, 10 chiston, 13 tuyuq, 4 mustazod, 5 musaddas, 4 tarji'band, musamman, tarkibband, qasida, masnaviy, soqiynoma mavjud. Har bir janrdagi she'rlar qofiyasi yoki radifidagi tugallanuvchi harfga qarab ma'lum tartib asosida joylashtirilgan. “Xazoyin ul-maoniy” o'z davridagi ma'naviy hayotning o'ziga xos qomusi bo'lib, shoir o'z she'rlarida hayotni, insonni, uning olijanob tuygu va intilishlarini ulug'lagan. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” bilan o'zbek she'riyatining janr va mavzu doirasini yanada boyitdi. Alisher Navoiy 1492-1498 yillarda Husayn Boyqaroning taklifi bilan o'zining barcha she'rlari, jumladan, avvalgi rasmiy devonlariga kirgan she'rlarini ham to'plab, “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma'nolar xazinasasi”) nomli yirik kulliyot yaratadi. Kulliyotning Sankt-Peterburg xattot Darvesh Muhammad Toqiy ko'chirgan, Parij kotib al-Hijroniy ko'chirgan nusxalari mavjud bo'lib, ular asosida professor H.Sulaymonov kulliyotning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi (1959-1960). Mazkur matn 3-6 jildlarini

tashkil etuvchi devonlar uchun asos bo'lgan¹. Shundan so'ng «Xazoyin ul-maoniy» ilmiy-tanqidiy tekstini professor Hamid Sulaymon Leningrad, Dushanba, Istanbul, Parij qo'lyozma nusxalari asosida qayta tuzib chiqdi. Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy»sining ushbu to'liq nashrini o'sha ilmiy-tanqidiy tekst hamda avvalgi nashr va yuqorida zikr etilgan to'rt qo'lyozmaga muqoyasa qilib chiqildi va bosmaga tayyorlandi. Birinchi nashrda turli sabablarga binoan yo'l qo'yilgan ayrim nuqsonlar shu ish jarayonida imkon boricha bartaraf etildi². Mazkur nashrning I va II tomlaridagi asarlar keyinchalik shoir tomonidan «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritilgan. Shuning uchun ayrim sherlarda shoir tomonidan qilingan tuzatish va o'zgarishlar bo'ladi. Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» asari O'zbekiston «Fan» nashriyoti tomonidan chop etilmoqda bo'lgan 20 jildlik shoir asarlarining to'liq nashrida III («G'aroyib us-sig'ar»), IV («Navodir ush-shabob»), V («Badoyi ul-vasat»), VI («Favoyid ul-kibar») jildlarni tashkil etadi. «Xazoyin ul-maoniy»ga kirgan devonlarning qayta ko'rilgan va to'ldirilgan mazkur nashrini filologiya fanlari kandidati F. Q. Sulaymonova rahbarligi ostida filologiya fanlari kandidatlar M. Sh. Hamidova, Sh. U. Sharipov, L. N. Serikova va ilmiy xodimlar M. Inog'omxo'jaeva, M. Bahodirova, M. Xayrullaevalar amalga oshirdilar. Matnshunos olim Hamid Sulaymonning Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» asarining boshqa yurtlardagi nusxalarini olib kelib, shu nusxalar asosida uning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish oson kechmagan. Asarning har bir qatorini sinchkovlik bilan o'qib, uning boshqa nusxalari bilan solishtirib yaratish asarga qaytadan jon kirgizgan bo'ladi. Hozirgi kunda bu asarning ilmiy-tanqidiy matnidani foydalanib ko'plab olimlarimiz ham o'zlarining ilmiy ishlarini amalga oshirishmoqda. Bu haqidagi gaplarni yuqorida aytib o'tdik. Asarni nashrga tayyorlashda ham nuqsonlarni bartaraf etishga imkoni boricha harakat bo'lganiga guvohi bo'lamiz.

Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" asarida biz ko'proq ilohiy qarashlarni, ilohiy muhabbatni ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, qadimda qalandar darveshlar ilohiy xislatga ega bo'lgan, Alloh yo'lida tarki dunyo qilgan kishilar bo'lgan. Quyidagi baytda ham shoir ey ahli zuhd (darveshlar), biz dayr aro, ya'ni dunyoda o'zligimizdan kechib, ilohiyatga singidik, siz machitdagi diniy ma'ruza-yu, bahslarda taqaddum (ilgari, peshqadam) bo'lib, insonlarni ezgulikka yetaklang, deb murojaat qilyapti. Shoirni bunday ko'ngilni taskin etuvchi suhbatlar ta'siridagi mast uyqusidan sozandaning bir dilkash kuy uyg'otishini aytmoqda.

Biz fano tufrog'i bo'iduk dayr aro, ey ahli zuhd,
Xonaqah sahnida siz bahsi taqaddum aylangiz.
Ey mug'anniylar, Navoiy mast edi - kech uyg'onur,
Ani uyg'otmoqqa bir dilkash tarannum aylangiz.

Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining birinchi devoni "G'aroyib us-sig'ar" devoni misolida ko'rib o'tamiz.

Bilamizki, "G'aroyib us-sig'ar" devonida eng ko'p qo'llanilgan janr g'azal janri bo'lib, 650 tadan joylashtirilgan. Qolgan janrlar tartibi quyidagicha: ruboiy 133ta,

¹ <https://hozir.org/navoiyning-falsafiy-aqidalari-navoiyning-badiiy-vositalari-nav.html>

² <https://lib.fbtuit.uz/assets/files/Alisher-Navoiy.G'aroyibus-sigar.pdf>

qit'alar-50ta, masnaviy-1ta, tarjiband-1ta, musaddas-1ta, muxammaslar-1ta, mustazod-1ta. Devon,

Ashraquat min aksi shamsil-ka'si anvorul hudo,
 "Yor aksin mayda ko'r " deb, jomdin chiqdi sado - g'azali bilan boshlanib;
 Til so'z bila to qizitti hangomani,
 Bir ham tiya olmadim bu xudkomamni.
 Har necha itikrak ayladim xomamni,

Ul xoma qaroroq ayladi nomamni- ruboiysi bilan yakun topadi. Devon kulliyotning birinchi devoni bo'lgani uchun debocha yozilgan, lekin xotima berilmagan. Ya'niki keyingi devonlar mantiqiy davomidir. To'rtala devon yaxlitlikda bitta yirik asarni tashkil etadi. Debocha birinchi devonda berilgan bo'lsa, xotima so'nggi devonda keltirilgan. Endi g'azallarning joylashtirilishi haqida gapiradigan bo'lsak, ular quyidagichadir.

Alif harfining ofatlarining ibtidosi 1-39 -gacha; Be harfining balolarining bidoyati 40-66- gacha; Pe harfining parivashlarining parvozi 67-68- gacha; Te harfining torojgarlarining tomoshosi 69-88-gacha; Se harfining samin gavharlarining samasarasi 89-91-gacha; Jim harfining jamilalarining jilvasi 92-95-gacha; Chim harfining chobuklarining chehragushoylig'i 96-100-gacha; He (hoye ho'tte) harfining haromiylari husnoroylig'i 101-106-gacha; Xe harfining xo'blarining xiromi 107-113-gacha; Dol harfining diloromlarining davroni 114-128-gacha; Zol harfining zavuyuhayotlarining zufununlug'i 129-131-gacha; Re harfining ra'nolarining rustoxezi 132-198-gacha; Ze harfining zebolarining ziynati 199-222-gacha; Sin harfining siymbarlarining savdosi 223- 241-gacha; Shin harfining sho'xlarining shamoyili 242-270-gacha; Sod harfining sanamlarining siyti 271- 275-gacha; Zod harfining zamyuronbo'ylarining ziyosi 276-279-gacha; Te harfining tannoqlarining tarovati 280-283-gacha; Ze harfining zariflarining zuhuri 284- 287-gacha; Ayn harfining iyorlarining alomati 288-294-gacha; G'ayn harfining g'izolalarining g'avg'osi 295-302-gacha; Fe harfining fitnalarining fusuni 303-308-gacha; Qof harfining qiyomatlarining qironi 309-321-gacha; Kof harfining kofirlarining kamoli 322-363-gacha; Lom harfining lu'batlarining latoyifi 364-392-gacha; Mim harfining mahbublarining malohati 393-437-gacha; Nun harfining nozaninlarining nozi 438-505-gacha; Vov harfining vallohiyyat afzolarining vaqoyii 506-520-gacha; He (hoye havvaz) harfining humoyunvashlarining halokangizlig'lari 521-572-gacha; Lomalifning lolaruxlarining lobasi 573-574-gacha; Yo harfining yag'molarining yuz ko'rguzmaklari 575-650-gacha bo'lgan tartibda joylashtirilgan. Yuqorida sanab o'tganlarimizdan ko'rinib turibdiki, harflar soni 31ta va har bir harf o'z sarlavhasiga egadir. Ammo bir Gof harfi sarlavhaga ega emas. Lekin ushbu harf bilan tugaydigan g'azal kof tarkibida berilgan.

1- Arab alifbosidagi 28ta hamda ^-chim , je-j, ^-gof, va ^-lom-alif harflari bilan 32 harfda tugaydigan g'azallar berilgan;

- 2- Devon g'azal janri bilan boshlangan;
- 3- G'azallar birinchi hamd, so'ng na't ma'viza ... tarkibdadir;
- 4- Mavzulari jihatidan g'azallar rango-rang;
- 5- Janrlar hajm jihatidan ketma-ketlikda joylashtirilgan;
- 6- Devon tarkibida qasida uchramaydi.

Navoiyning yuqoridagi qaydlarini chuqur o'rganish, tadqiq qilish shoirning ilmiy va badiiy ijod sohasidagi san'atkorligining muhim qirralarini ochib beradi. Shoir devonidagi she'rlarni chuqur o'rganishda esa zarur ko'rsatmalar vazifasini bajarmoqda. Navoiy bobomiz "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida insoniylikning eng oliy mezoni bu - porsolik (taqvodorlik), pokdomonlik va haqiqatsevarlikdir, deya e'tirof etgan. "Komil inson" g'oyasi ham hamma zamonlarda birdek targ'ib etilgan. Alisher Navoiyning asrlar oshgan asarlari bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytadigab bo'lsak, Alisher Navoiy bobomiz "Devoni Foni" va "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida insoniylikning eng oliy mezoni bu - porsolik (taqvodorlik), pokdomonlik va haqiqatsevarlikdir, deya e'tirof etgandir. Shu ma'noda, bugungi kunda ham insonga beriladigan ta'rif o'zgarmagan. Aslida XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirib, tamal toshi qo'yilgan yurtimizdagi ikkinchi Uyg'onish - Renessans davrining asosida ham komil inson g'oyasi turgani haqiqatdir. Bugun shiddatli zamon oldimizga yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Ammo, ishonchim komilki, ushbu muammolarni hal etish va oldimizdagi ezgu maqsadlarimizga yetish, dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lish uchun ham, eng avvalo, bizlarning ilm-ma'rifatli, ma'naviyatli, odob-axloqli va, albatta, zamonaviy, ilg'or fan sirlarini mukammal egallashi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

So'zim nihoyasida men Prezidentimiz tomonidan taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yilib, yangi Uyg'onish davri - Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan bugungi kunda Alisher Navoiy potikasining muhtasham ijodiy obidasini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotganini aytmogchiman. Ul zotning asrlar davomida o'z jozibasi va ma'naviy qiymatini yo'qotmay kelayotgan adabiy merosini eng yirik namunasi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami, uchinchi tom, Xazoyin ul -maoniy, G'aroyib us-sig'ar, Toshkent- 1988
2. Z.M. Bobur Boburnoma. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti T-1960.
3. Alisher Navoiy "Badoe' ul-bidoya" MAT. 20 jildlik-T.: Fan, 1987. T.1.
4. Navoiyshunoslik (1-kitob) Darslik, "Tamaddun" Toshkent-2018.
5. Qurbonova Saodat Navoiy debochalari poetikasi ("Badoe' ul-bidoya" va "Xazoyin ul-maoniy" debochalari misolida) Bitiruv malakaviy ishi, Toshkent-2018
6. Исходов Ё. Навоий поэтикаси. - Т.: Фан, 1983.
7. <http://Library.navoiy-uni.uz>